

"YANGI TAXRIRDAGI KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARINI KENGAYTIRISH"

Sattorova Muxarram Abdurazzakovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasini
o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi, inson huquqlari va qadr qimmatining oliy ne'mat ekanligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy islohotlarining inson qadriga ta'siri va ayrim xorijiy mamlakatlarning konstitutsiya tizimi bilan qiyosiy-huquqiy tahlili ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy islohotlar, inson qadri, inson huquqlari, adolatlilik, demokratiya.

Umuman, inson huquqlari va erkinliklarining shakllanishi o'z tarixiga ega. Hozirgi davr tushunchasidagi inson huquqlari kontseptsiyasi Yevropada Uyg'onish va Reformatsiya davrlarida boshlangan deb hisoblanadi. 1215 yili Angliyada Buyuk erkinliklar xartiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda soliq solish, sud ishlari, diniy huquqlar, mulk huquqi, vasiylik va boshqa masalalarni tartibga soladigan 63 modda bo'lgan. Deklaratsiyaga erkinlik, mulkchilik, xavfsizlik va kamsitishga qarshilik inko'rsatish kabi huquqlar kiritilgan. Inson huquqlari sifatida shuningdek fikr va mulohazalarni, shu jumladan, diniy masalalar bo'yicha ham erkin ifodalash huquqlari ham tan olingan. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi printsipi e'lon qilingan.

Hozirda esa Davlatimizning bosh qomusi – yurtimizni demokratik yo'ldan rivojlantirishning huquqiy kafolati hisoblanadi. Inson huquqlari esa – demokratik jamiyatning umume'tirof etgan prinsiplaridan biridir. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan insonparvarlik g'oyalari o'tmishdagi davlatchiligidan taraqqiyotida ham o'z aksini topganini yuqorida aytib o'tdik. Konstitutsiya – atamasining ma'nosiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak tuzish, tuzuk, nizom, tuzilish, yaratish degan ma'nolarni anglatadi. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti shundan xabar beradiki, qayerdaki demokratiya

ildiz otsa, o`sha joyda inson huquqlari kafolatlanadi va fuqarolarning tengligi masalasi alohida qayd etiladi. Inson huquqlari insonning dunyoga kelishi bilan bog`liq.

1992 yilda, mustaqillikning dastlabki yillarda qabul qilingan va o`tgan davrlarning ko`plab mafkuraviy talablarini o`zida mujassam etgan amaldagi O`zbekiston Konstitutsiyasini jamiyat taraqqiyotining zamonaviy qarashlariga mos ravishda yangilashga ehtiyoj sezilayotgandi.

Qonunchilikka ko`ra, Konstitusiyaga o`zgartishlar kiritish mamlakat parlamenti orqali ham amalga oshirilishi mumkin edi. Biroq Prezident Shavkat Mirziyoyev aql, uzoqni ko`ra bilgan siyosatchi bo`lgani tufayli umumxalq referendumini o`tkazish tashabbusini ilgari surdi. Bu, o`z navbatida, O`zbekiston xalqiga umumxalq muhokamasida ishtirok etib, konstitutsiyaviy islohotlar bo`yicha o`z fikrini bildirish imkoniyatini berdi.

Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimini markazsizlashtirish, hududlarning mustaqilligini oshirish, jumladan, ichki va xorijiy investitsiyalarni rag`batlantirish sohasida ham mustahkam huquqiy asos yaratadi. Yangi O`zbekistonning barpo etilishida hal qiluvchi omillardan biri uning dunyoga ochiqligidir. Keyingi yillarda mamlakatning yangilangan tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasida salmoqli ishlar qilindi.

Ayni paytda mintaqada va butun dunyoda vaziyat tez o`zgarmoqda, bu esa O`zbekiston tashqi siyosatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mintaqadagi mavjud ijobiy tendensiyalarni, Markaziy Osiyoda o`zaro ishonchni mustahkamlash va hamkorlikning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi asosiy vazifa mintaqani xavfsiz, barqaror rivojlanish, yaxshi qo'shnichilik va o`zaro manfaatli hamkorlik xududiga aylantirishdan iborat.

O`zbekiston Konstitutsiyasiga kiritish taklif etilayotgan o`zgartishlar Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan so`nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning

borishini o‘zida aks ettiradi, shuningdek, ular islohotlarning yangi yo‘nalishlari mustahkamlanishini ham nazarda tutadi.

O‘zgartishlarda asosiy e’tibor “inson huquqlari”, “ijtimoiy siyosat” va “fuqarolik jamiyat” kabi tushunchalarni huquqiy tomondan yanada mustahkamlash hamda O‘zbekiston yetakchisining islohotchilik siyosatini davom ettirishga qaratilgan, deb o‘yayman. Ishonchim komilki, bu islohotlar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yanada mustahkamlash, mamlakat ichkarisida insonning huquq va erkinliklari kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Inson huquqlari tushunchasi bizning zaminimizda asrlar davomida yashab kelayotgan qadriyatligini hisobga olgan holda va hozirgi rivojlanib borayotgan huquq tizimida inson qadrini yuksak darajada e’zozlanishi davlatimizning yutuqlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek Bugun xalqimiz, xalqaro hamjamiyat "Yangi O’zbekistonga - yangilangan Konstitutsiya" lozimligini e’tirof etmoqda. Zero, har qanday islohot kuchli konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayansagina, ko’zlangan ezgu maqsadga va ulug’vor vazifalarga, samarali natijalarga erishadi. Huquqiy soha rivoji islohotlar shiddatidan ortda qolsa - bu jamiyat va davlat inqiroziga olib kelishi mumkinligini jahon davlatlari tarixidan ham ko’rishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda inson qadri ulug’lanadigan Yangi O’zbekiston g’oyasi - butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, uni hayotga tatbiq etish umummilliy harakatga aylanib ulgurdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T. 2021.
2. Sh.Mirziyoyev “Yangi O’zbekiston: demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlар va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” Toshkent-2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF- 60-soni Farmoni.

4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi – 1948 yil 10 dekabr.
5. Muminov Abdulkay Rashidovich, Tillabaev Mirzatillo Alisherovich Inson huquqlari: darslik /Muminov A.R., Tillabaev M.A. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. - 2-nashr. –T.: “Adolat” nashriyoti, 2013. – 402 bet.
6. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
7. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.

